



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIRIN IQTISODIYOTGA  
QARSHI KURASHNING HUQUQIY ASOSLARI VA JAVOBGARLIK  
MASALALARI**

**BAXRAMOV Xojiakbar Xusanovich**

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi  
Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrasida  
dotsenti (+99899) 937-14-78

**SUBANOV Olimjon Suyarkul o‘g‘li**

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi  
Malaka oshirish instituti Yuridik fanlar kafedrasida  
katta o‘qituvchisi, dotsent (+99893) 551-71-30

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida yashirin iqtisodiyotning mavjudligi, uning davlat byudjeti va iqtisodiy xavfsizlikka ta’siri hamda huquqiy jihatlari tahlil qilinadi. Jinoyat va ma’muriy javobgarlik normalari, va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishning muammolari va takliflar yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** yashirin iqtisodiyot, huquqiy tartib, jinoyat javobgarligi, ma’muriy javobgarlik, raqamli nazorat, soliq qonunchiligi, iqtisodiy xavfsizlik, O‘zbekiston.

**ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ И ВОПРОСЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА БОРЬБУ  
С ТЕНЕВОЙ ЭКОНОМИКОЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.**

**Аннотация:** В данной статье анализируется существование теневой экономики в Республике Узбекистан, её влияние на государственный бюджет и экономическую безопасность, а также правовые аспекты. Рассматриваются нормы уголовной и административной ответственности, проблемы борьбы с теневой экономикой и предлагаются возможные решения.

**Ключевые слова:** теневая экономика, правовой порядок, уголовная ответственность, административная ответственность, цифровой контроль, налоговое законодательство, экономическая безопасность, Узбекистан.

**LEGAL FOUNDATIONS AND LIABILITY ISSUES IN COMBATING  
THE SHADOW ECONOMY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN.**



**Abstract:** This article analyzes the existence of the shadow economy in the Republic of Uzbekistan, its impact on the state budget and economic security, as well as its legal aspects. The norms of criminal and administrative liability, the challenges in combating the shadow economy, and proposed solutions are discussed.

**Keywords:** shadow economy, legal framework, criminal liability, administrative liability, digital monitoring, tax legislation, economic security, Uzbekistan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish, biznes muhitini yaxshilash va davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, soliq-bojxona tizimini soddalashtirish, tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, litsenziya va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish, shuningdek iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali shaffoflikni ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bunday islohotlar mamlakatda sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va iqtisodiy o‘shishni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, yashirin iqtisodiyot hanuzgacha milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga jiddiy to‘siq bo‘lib qolmoqda. Yashirin iqtisodiyot davlat byudjeti daromadlarining kamayishiga, soliq yukining noadolatli taqsimlanishiga, halol tadbirkorlik sub‘ektlarining raqobatbardoshligining pasayishiga va iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soluvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Yashirin iqtisodiyot o‘z mohiyatiga ko‘ra qonunchilikda belgilangan normalarni chetlab o‘tish yoki buzish orqali amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatni qamrab oladi. Bu esa uning huquqiy tabiatini kompleks tarzda o‘rganishni talab etadi. Chunki mazkur hodisa bir vaqtning o‘zida jinoyat huquqi, ma‘muriy huquq va jinoyat protsessual huquq sohalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ularning o‘zaro uyg‘unligi va samaradorligi yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish natijadorligini belgilaydi.

Ayniqsa, iqtisodiy jinoyatlarning ko‘payishi, ularning murakkab va latent xarakter kasb etishi, moliyaviy operatsiyalarning raqamlashuvi sharoitida yangi turdagi huquqbuzarliklarning paydo bo‘lishi huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bu esa jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, tergov qilish va sudga ko‘rib chiqish jarayonlarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu nuqtai nazardan, yashirin iqtisodiyotni nafaqat iqtisodiy, balki huquqiy kategoriya sifatida ham chuqur tahlil qilish, uning jinoyat va ma‘muriy huquqbuzarliklar bilan bog‘liq jihatlarini aniqlash, shuningdek jinoyat protsessual mexanizmlarni takomillashtirish orqali unga qarshi samarali kurashishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.



Yashirin iqtisodiyotning alohida ko‘rinishlari O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida mustaqil jinoyat tarkiblari sifatida mustahkamlangan bo‘lib, ular davlatning iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid soluvchi ijtimoiy xavfli qilmishlar sifatida e‘tirof etiladi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalarida yashirin iqtisodiy faoliyatning turli shakllari uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Jumladan, Jinoyat kodeksining 184-moddasida nazarda tutilgan Soliqlar yoki yig‘imlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash jinoyati iqtisodiy munosabatlarning barqarorligiga putur yetkazuvchi, davlat byudjeti daromadlarini kamaytiruvchi hamda soliq yukining adolatli taqsimlanishi prinsipini buzuvchi qilmish sifatida tavsiflanadi. Mazkur jinoyatning ob‘ektiv tomoni moliyaviy hisobotlarni soxtalashtirish, daromadlarni yashirish yoki boshqa usullar orqali soliq majburiyatlarini bajarmaslikda namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, Jinoyat kodeksining 188-moddasi bilan tartibga solingan noqonuniy tadbirkorlik faoliyati litsenziyalash va ruxsat berish tizimini chetlab o‘tish orqali iqtisodiy faoliyat yuritishni qamrab oladi. Bu esa bozor munosabatlarida teng raqobat muhitini izdan chiqaradi hamda davlat tomonidan o‘rnatilgan iqtisodiy tartibni buzadi.

Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, ya‘ni “pul yuvish” (Jinoyat kodeksining 243-moddasi) esa yashirin iqtisodiyotning eng murakkab va transmilliy xususiyatga ega shakllaridan biri bo‘lib, u jinoiy daromadlarning manbasini yashirish va ularga qonuniy tus berish orqali iqtisodiy tizimning shaffofligiga jiddiy putur yetkazadi.

Bundan tashqari, korrupsiyaga oid jinoyatlar, jumladan pora olish (210-modda) va pora berish (211-modda), yashirin iqtisodiyotning institutsional asosini shakllantiruvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Korrupsiya orqali noqonuniy iqtisodiy faoliyat “himoya” qilinishi, nazorat mexanizmlarining samaradorligi pasaytirilishi va huquqni qo‘llash amaliyotining izdan chiqarilishi kuzatiladi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur normalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yashirin iqtisodiyot faqat iqtisodiy munosabatlar doirasida cheklanib qolmaydi, balki jinoyat-huquqiy munosabatlarni keltirib chiqaruvchi, ijtimoiy xavflilik darajasi yuqori bo‘lgan kompleks huquqiy hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Yashirin iqtisodiyot bilan bog‘liq jinoyatlarni aniqlash, fosh etish va ular yuzasidan adolatli sudlovni ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan protsessual mexanizmlar orqali amalga oshiriladi. Mazkur



sohada protsessual normalarning samaradorligi jinoyatlarning latentligi va murakkab isbotlash jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir.

Xususan, JPKning 81–95-moddalarida belgilangan dalillar tizimi iqtisodiy jinoyatlarni isbotlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu turdagi jinoyatlarda dalillar, odatda, moliyaviy hujjatlar, buxgalteriya ma'lumotlari, bank operatsiyalari va raqamli izlar shaklida namoyon bo'ladi. Shu bois ularni to'g'ri yig'ish, mustahkamlash va baholash alohida protsessual yondashuvni talab etadi.

JPKning 290-moddasi va boshqa tegishli normalariga muvofiq mol-mulkni xatlash va keyinchalik musodara qilish instituti noqonuniy ravishda orttirilgan aktivlarni davlat foydasiga qaytarishning muhim huquqiy mexanizmi hisoblanadi. Bu esa nafaqat jinoyat oqibatlarini bartaraf etish, balki profilaktik ta'sir ko'rsatish vazifasini ham bajaradi.

Shuningdek, JPKning 173-moddasiga asosan tayinlanadigan sud ekspertizalari, ayniqsa moliyaviy-iqtisodiy ekspertizalar, iqtisodiy jinoyatlarning mazmunini ochib berish va zarar miqdorini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy jinoyatlar yuqori darajada latent xususiyatga ega bo'lganligi sababli, ularni fosh etishda tezkor-qidiruv faoliyati, moliyaviy monitoring va raqamli texnologiyalardan foydalanish tobora ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bank ma'lumotlari, elektron to'lov tizimlari va raqamli platformalar orqali olingan ma'lumotlar zamonaviy dalillar tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Yashirin iqtisodiyot ko'p hollarda jinoiy javobgarlikkacha bo'lgan bosqichda ma'muriy huquqbuzarliklar shaklida namoyon bo'lib, bu holat uning profilaktik jihatdan bartaraf etilish imkoniyatini yaratadi. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida mazkur turdagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralari nazarda tutilgan.

Jumladan, MJtKning 175-moddasida soliq qonunchiligini buzish holatlari uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, bu normalar soliq intizomini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, 164-moddada savdo yoki xizmat ko'rsatish qoidalarini buzish, 165-moddada Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risidagi qonunchilikni buzish, 49-moddada esa mehnat va mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunchilikni buzish kabi holatlar ma'muriy huquqbuzarlik sifatida baholanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlikning o'ziga xos xususiyati uning profilaktik yo'naltirilganligida namoyon bo'lib, u huquqbuzarliklarning jinoyat darajasigacha



rivojlanishining oldini olishga xizmat qiladi. Shu ma'noda, ma'muriy sanksiyalar tizimi samarali ishlashi yashirin iqtisodiyotni qisqartirishning muhim huquqiy vositasi hisoblanadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda ma'muriy-huquqiy mexanizmlar kompleks va tizimli yondashuv asosida tashkil etilgan. Jumladan, **Germaniyada** soliq intizomini ta'minlash maqsadida "soliq nazorati – ma'muriy ta'sir – jinoiy javobgarlik" zanjiri asosida bosqichli mexanizm joriy etilgan. Unga ko'ra, dastlab huquqbuzarlik ma'muriy tartibda ko'rib chiqiladi, takroriylik yoki katta miqdorda zarar aniqlangan taqdirda esa jinoiy javobgarlik masalasida ko'riladi. Bu yondashuv huquqbuzarliklarning erta bosqichda bartaraf etilishini ta'minlaydi.

**Italiya** tajribasida yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda ma'muriy cheklovlar va iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarining uyg'unligiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, naqd pul aylanmasiga cheklovlar o'rnatish, elektron hisob-kitoblarni rag'batlantirish, shuningdek ma'muriy huquqbuzarliklar uchun jarimalarning yuqori miqdorda belgilanishi orqali noqonuniy iqtisodiy faoliyatning iqtisodiy manfaatdorligi pasaytiriladi.

**Janubiy Koreyada** esa raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ma'muriy nazorat samaradorligini tubdan oshirgan. Elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa apparatlari va yagona ma'lumotlar bazasi orqali iqtisodiy operatsiyalarning shaffofligi ta'minlangan. Bu esa inson omilini qisqartirish orqali korrupsiya va yashirin iqtisodiyot ko'lamini kamaytirishga xizmat qilgan.

AQSh tajribasida ma'muriy va jinoiy javobgarlik o'rtasidagi aniq differentsiatsiya alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu mamlakatda soliq qonunbuzilishlari bo'yicha dastlab ma'muriy jazo choralari (jarima, penya) qo'llaniladi, og'ir va qasddan sodir etilgan holatlardagina jinoiy ta'qibga o'tiladi. Bu tizim huquqbuzarlikka nisbatan proporsional ta'sir ko'rsatishni ta'minlaydi va huquqni qo'llash amaliyotida adolat prinsipini mustahkamlaydi.

Xorijiy tajribalarni umumlashtirgan holda ta'kidlash joizki, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda ma'muriy javobgarlik institutining samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq:

- jazo choralarining muqarrarligi va tezkor qo'llanilishi;
- ma'muriy va jinoiy javobgarlik o'rtasida aniq chegaralarning mavjudligi;
- raqamli nazorat mexanizmlarining keng joriy etilganligi;
- iqtisodiy rag'bat va jazo choralarining muvozanatli uyg'unligi.



Shu nuqtai nazardan, O‘zbekistonda ham ma’muriy javobgarlik institutini yanada takomillashtirish, uni xalqaro ilg‘or tajribalar bilan uyg‘unlashtirish, ayniqsa raqamli iqtisodiyot sharoitida ma’muriy nazoratning yangi shakllarini joriy etish orqali yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish mumkin. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiy shaffoflikni ta’minlash, soliq intizomini mustahkamlash va davlat iqtisodiy xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish sohasida muayyan ijobiy o‘zgarishlarga qaramasdan, qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Birinchidan, jinoyat va ma’muriy javobgarlik o‘rtasidagi aniq chegaralarning yetarli darajada belgilanmaganligi huquqni qo‘llash amaliyotida turlicha yondashuvlarga sabab bo‘lmoqda. Bu esa ayrim holatlarda huquqbuzarliklarni noto‘g‘ri kvalifikatsiya qilishga olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, iqtisodiy jinoyatlarning latent (yashirin) xususiyati ularni o‘z vaqtida aniqlash va fosh etish samaradorligini pasaytiradi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida sodir etilayotgan huquqbuzarliklarni aniqlashda mavjud protsessual mexanizmlar har doim ham yetarli darajada samarali emas.

Uchinchidan, vakolatli davlat organlari faoliyatida muvofiqlashtirishning yetarli emasligi hamda ma’lumotlar almashinuvining cheklanganligi nazorat samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

To‘rtinchidan, ma’muriy jazolarning ayrim holatlarda profilaktik ta’siri past bo‘lib, ular huquqbuzarliklarning takrorlanishining oldini olishda yetarli darajada samara bermayotgani kuzatiladi.

Mavjud muammolarni bartaraf etish va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

Jinoyat va ma’muriy huquqbuzarlik o‘rtasidagi chegaralarni aniq belgilash – qonunchilikda zarar miqdori, takroriylik va qasd mezonlarini yanada aniqlashtirish orqali huquqni qo‘llash amaliyotida yagona bir tizim ishlab chiqish;

Jinoyat-protsessual mexanizmlarni takomillashtirish – ayniqsa raqamli dalillardan foydalanish, elektron ma’lumotlarni protsessual jihatdan mustahkamlash va ularni dalil sifatida qo‘llash tartibini soddalashtirish;

Raqamli nazorat tizimlarini keng joriy etish – elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa tizimlari va yagona ma’lumotlar bazalari orqali iqtisodiy operatsiyalarning shaffofligini ta’minlash;



Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda – jarima va boshqa ta'sir choralari iqtisodiy jihatdan samarali darajada belgilash hamda ularning muqarrar qo'llanilishini ta'minlash;

Institutsional hamkorlikni rivojlantirish – soliq, bojxona, moliyaviy monitoring va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida axborot almashinuvini integratsiya qilish;

Korrupsiyaga qarshi choralarni kuchaytirish – davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish va inson omilini qisqartirish orqali yashirin iqtisodiyotni rag'batlantiruvchi omillarni bartaraf etish;

Huquqiy madaniyatni oshirish – aholi va tadbirkorlar o'rtasida qonunlarga rioya qilishning ahamiyatini tushuntirish va huquqiy ongni shakllantirish.

Yuqorida taklif etilgan chora-tadbirlarni kompleks tarzda amalga oshirish natijasida, birinchi navbatda, yashirin iqtisodiyot ulushini sezilarli darajada qisqartirish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, soliq tushumlarining oshishi, davlat byudjeti barqarorligining mustahkamlanishi va iqtisodiy munosabatlarda adolatli raqobat muhitining shakllanishi ta'minlanadi.

Bundan tashqari, jinoyat va ma'muriy huquq normalarining uyg'unlashuvi hamda jinoyat-protsessual mexanizmlarning takomillashuvi iqtisodiy jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash va samarali tergov qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Eng muhimi, raqamli texnologiyalarga asoslangan zamonaviy nazorat tizimlarining joriy etilishi inson omilini qisqartirish orqali korrupsiya xavfini kamaytiradi va umumiy huquqiy tartibotni mustahkamlaydi.

Natijada, iqtisodiy shaffoflikni ta'minlash, huquq ustuvorligini mustahkamlash va davlatning iqtisodiy xavfsizligini oshirishga qaratilgan barqaror va samarali huquqiy mexanizm shakllanadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib ta'kidlash joizki, yashirin iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy tizimda ko'p qirrali va murakkab huquqiy-ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'lib, u davlatning iqtisodiy xavfsizligi, moliyaviy barqarorligi hamda bozor munosabatlarning adolatli rivojlanishiga jiddiy tahdid soladi. Ushbu hodisa nafaqat iqtisodiy munosabatlarga, balki jinoyat huquqi, ma'muriy huquq va jinoyat-protsessual huquq tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, kompleks huquqiy yondashuvni talab etadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xususan iqtisodiyotni liberallashtirish, soliq-bojxona tizimini soddalashtirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishda



muhim ahamiyat kasb etayotgan bo'lsa-da, mazkur muammo hanuz dolzarbligicha qolmoqda. Bu esa mavjud huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish, ayniqsa jinoyat va ma'muriy huquqbuzarlik o'rtasidagi chegaralarni aniqlash, jazo muqarrarligini ta'minlash zaruratini ko'rsatadi.

Jinoyat qonunchiligida belgilangan normalar yashirin iqtisodiyotning eng xavfli ko'rinishlariga qarshi qat'iy ta'sir choralari nazarida tutsa, ma'muriy javobgarlik instituti uning profilaktik jihatdan oldini olishga xizmat qiladi. Shu jihatdan, mazkur ikki huquqiy mexanizm o'rtasidagi o'zaro uyg'unlik va mutanosiblikni ta'minlash samarali huquqiy siyosatning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, jinoyat-protsessual mexanizmlarning samaradorligi, ayniqsa dalillar bazasini shakllantirish, moliyaviy monitoringni amalga oshirish va raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi yashirin iqtisodiyot bilan bog'liq jinoyatlarni fosh etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Xorijiy davlatlar tajribasi tahlili esa shuni ko'rsatadiki, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda ma'muriy va jinoiy ta'sir choralarining bosqichma-bosqich qo'llanilishi, raqamli nazorat tizimlarining joriy etilishi, shuningdek jazo choralarining muqarrarligi va shaffofligi yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Umuman olganda, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishda faqat jazo choralari kuchaytirish yetarli emas. Bu borada kompleks yondashuvni qo'llash, ya'ni huquqiy bazani takomillashtirish, institutsional mexanizmlarni mustahkamlash, raqamli transformatsiyani chuqurlashtirish va jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish orqali barqaror natijalarga erishish mumkin. Mazkur chora-tadbirlar uyg'unligi esa iqtisodiy shaffoflikni ta'minlash, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish va mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent, 2026.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. – Toshkent, 2026.
3. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. – Toshkent, 2026.
4. Axmadov, Sh. – Yashirin iqtisodiyot va uning iqtisodiy va huquqiy xossalari. Toshkent: Iqtisod fanlari universiteti, 2021.
5. Mirzaev, R. – Iqtisodiyotda raqamli texnologiyalar va huquqni muhofaza qilish. Toshkent: Tashqi iqtisodiy tadqiqotlar jurnali, 2022.



6. OECD – Tax Administration 2022: Comparative Review of Tax Compliance Measures. Paris, 2022.
7. Bundesministerium der Finanzen (Germany) – Compliance and Tax Administration in Germany. Berlin, 2021.
8. Agenzia delle Entrate (Italy) – Anti-Evasion Measures and Digital Fiscal Control. Rome, 2021.
9. National Tax Service (South Korea) – Digitalization of Tax and Administrative Control. Seoul, 2022.
10. IRS – Administrative and Criminal Tax Enforcement in the United States. Washington D.C., 2022.
11. World Bank – Digital Economy and Transparency Measures in Emerging Markets. Washington D.C., 2022.